



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 5, May, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

The Institute of Precautionary Measures in Criminal Procedure Law and Guarantees of Individual Rights in the Application of Precautionary Measures: Experience of Uzbekistan and Italy

Rasulova Sarvinoz Sobirjon kizi

University of World Economy and Diplomacy

2nd year student of the Faculty of “International Law”

Tel: +998 (88) 321 82 28

e-mail: sarvinozrasulova9999@gmail.com

Abstract: This article analyzes the institution of preventive measures in criminal proceedings from both legal and practical perspectives. It highlights the role of preventive measures in the conduct of criminal justice and their importance in maintaining a balance between individual freedom and public security. A comparative analysis is conducted between the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and the “Codice di procedura penale” of the Italian Republic. The study examines the types of preventive measures, their legal grounds, and procedural safeguards, identifying similarities and differences between the two legal systems. Special attention is given to electronic monitoring systems, house arrest, and victim protection mechanisms. The article concludes with proposals for improving the criminal procedural legislation of Uzbekistan.

Keywords: procedural coercive measures, preventive measures doctrine, restriction of personal liberty, serious evidentiary basis, procedural risks, obstruction of justice, recidivism, electronic monitoring, house arrest, probation supervision, victim protection mechanisms, constitutional safeguards, principle of individualized assessment, comparative criminal procedure analysis, Italian Code of Criminal Procedure, Criminal Procedure Code of Uzbekistan



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 5, May, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Jinoyat-protsessual qonunchiligida ehtiyot choralari instituti va ehtiyot choralarini qo'llashda shaxs huquqlari kafolatlari: O'zbekiston va Italiya tajribasi

Rasulova Sarvinoz Sobirjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq” fakulteti 2-kurs talabasi

Tel: +998 (88) 321 82 28

e-pochta: sarvinozrasulova9999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat protsessida ehtiyot choralarini qo'llash instituti huquqiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ehtiyot choralarining jinoyat ishini yuritishdagi o'rni, ularning shaxs erkinligi va jamiyat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Italiya Respublikasining “Codice di procedura penale” normalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ehtiyot choralarining turlari, qo'llash asoslari va protsessual kafolatlar o'rganilib, ikki davlat o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Bundan tashqari, elektron monitoring tizimi, uy qamog'i va jabrlanuvchini himoya qilish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola yakunida O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: protsessual majburlov chorasi, ehtiyot choralari instituti, misure cautelari, shaxs erkinligini cheklash, jiddiy ayblov dalillari, protsessual xavf, tergovga to'sqinlik, recidivism, elektron monitoring, uy qamog'i, probatsiya nazorati, jabrlanuvchini himoya qilish mexanizmi, konstitutsiyaviy kafolatlar, individual yondashuv prinsipi, qiyosiy jinoyat-protsessual tahlil, Italiya Codice di procedura penale, O'zbekiston JPK.

Аннотация: В данной статье анализируется институт применения мер пресечения в уголовном процессе с правовой и практической точек зрения. Освещается роль мер пресечения в осуществлении уголовного



судопроизводства, а также их значение в обеспечении баланса между свободой личности и общественной безопасностью. Проводится сравнительный анализ норм Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан и Уголовно-процессуального кодекса Итальянской Республики. В ходе исследования изучаются виды мер пресечения, основания их применения и процессуальные гарантии, выявляются сходства и различия двух правовых систем. Особое внимание уделяется системе электронного мониторинга, домашнему аресту и механизмам защиты потерпевших. В заключение предлагаются рекомендации по совершенствованию уголовно-процессуального законодательства Узбекистана.

Ключевые слова: меры процессуального принуждения, институт мер пресечения, ограничение личной свободы, достаточные доказательства обвинения, процессуальные риски, воспрепятствование расследованию, рецидив преступлений, электронный мониторинг, домашний арест, пробационный контроль, защита потерпевших, конституционные гарантии, принцип индивидуального подхода, сравнительный уголовно-процессуальный анализ, УПК Италии, УПК Узбекистана.

Jinoyat protsessida ehtiyot choralarini qo'llash instituti huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Zero, ehtiyot choralarini orqali jinoyat ishini yuritish jarayonida osonlashadi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli protsessual xatarlarning oldi olinadi hamda adolatli sud muhokamasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. Shuningdek, shaxsning erkin harakatlanish huquqiga ma'lum darajada cheklov kiritgan holda, jinoyat ishining to'g'ri va uzluksiz olib borilishini kafolatlashga xizmat qiladi. Jinoyat-protsessual qonunchilikda ehtiyot choralarining qo'llanishi qat'iy huquqiy asoslar bilan tartibga solinganligi demokratiya, inson huquq va erkinliklariga hurmat, qonuniylik hamda adolat tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydi. Ehtiyot choralarini instituti nafaqat amaliy jihatdan, balki nazariy nuqtayi nazardan ham dolzarb mavzulardan



biridir. Mazkur maqolada ehtiyot choralarining huquqiy tabiati, ularning qo‘llanish asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning tajribalari, xususan, Italiya Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ehtiyot choralari tahlil qilib, milliy qonunchiligimizga takliflar berib o‘tiladi. Bunda asosiy fokus O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Italiya Respublikasining “Codice di procedura penale” ga qaratiladi va muhim moddalar tahlil qilinadi.

Avvalo, ikki davlat Jinoyat-protsessual kodekslarni solishtirib chiqib, keyin aynan ehtiyot choralari bilan bog‘liq moddalarni ko‘rib chiqamiz. 1988-yilning 22-sentabrida qabul qilingan Italiya jinoyat-protsessual kodeksi 2 qism va 11 kitobdan iborat bo‘lib, har bir kitob bo‘limlarga, bo‘limlar esa moddalarga ajratilgan¹. 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston JPK esa umumiy va maxsus qismga ajratilib, 12-bo‘lim, 66-bob va 623 moddadan iborat². Ehtiyot choralari umumiy qismga tegishli hisoblanib, 28-bob 236-254-moddalarni o‘z ichiga olgan. Italiya kodeksida esa “Misure Cautelari” sifatida 1-qismining 4-kitobidagi 1-bo‘limidagi 272-315-moddalari bag‘ishlangan. O‘zbekistonning ehtiyot choralari ko‘rib chiqamiz. Ehtiyot choralari qo‘llashdan sabab, asosan, shaxsning tergov va sud jarayonidan qochib ketmasligi, jinoyatning oldini olish, haqiqatni aniqlashdagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘sqinlikka yo‘l qo‘ymaslik va ijroni samarali ta‘minlashga qaratilgan. Kodeksning 237-moddasida ehtiyot choralarining turlari sanab o‘tilgan bo‘lib, ular: tilxat, shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi, garov, uy qamog‘i, qamoqqa, voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish, harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuidan iborat. Muhimi shundaki, ehtiyot choralari qo‘llayotganda shaxsning xususiyatlari ham e‘tiborga olinadi, masalan, adolatni ta‘minlash maqsadida shaxsga ehtiyot choralarining faqat bittasi qo‘llanilishi va aynan qaysi chora tanlanishi jinoyatning og‘irligi, shaxsning yoshi, sog‘ligi, oilaviy ahvoli, kasbi va boshqa holatlarga qarab belgilanishi

¹ <https://www.altalex.com/documents/codici-altalex/2014/10/30/codice-di-procedura-penale> “Codice di procedura penale” Italiya jinoyat-protsessual kodeksi

² <https://lex.uz/uz/docs/-7249299> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi



ham chorani qo‘llovchi organlarga tanlov imkoniyatini, ham qo‘llanilayotgan shaxslarga odillikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Amaliyotda bu choralar kimlarga nisbatan qo‘llaniladi degan savol tug‘iladi. 239-modda buni aniq belgilab bergan, asosan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga, zarurat bo‘lsa, aqli noraso shaxslarga ham qo‘llanishi mumkin. 240-modda esa har qanday ehtiyot chorasi faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan chiqarilgan rasmiy qaror yoki ajrim bilan kuchga kirishi, o‘zgartirilishi yoki bekor bo‘lishini belgilaydi. Agar shaxs o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan chorani asossiz deb bilsa, 241-modda esa shikoyat qilish huquqini tushuntirib, shikoyat berilgan paytda ehtiyot chorasining ijrosini to‘xtatib qo‘yilmasligini aytadi. 241-moddadan 254-moddagacha har bir ehtiyot chorasining kimlarga nisbatan qo‘llanishi mumkinligi, qanday tartibda amalga oshirilishi, muddatlari va ularning noqonuniy qo‘llangani aniqlanganda zararni qoplash izohlab berilgan. Italiya kodeksida esa 272-315-moddalari shaxsga nisbatan ehtiyot choralari qo‘llashning asoslari, shartlari va tartibini belgilaydi. Avvalo, shaxsning konstitutsiyaviy erkinliklari faqat qonunda nazarda tutilgan ehtiyot choralar orqali va belgilangan tartibda cheklanishi mumkin. Bu norma shuni anglatadiki, davlat organlari o‘zboshimchalik bilan emas, balki faqat qonun doirasida shaxs erkinligiga aralashishi mumkin. Shuningdek, ehtiyot choralari qo‘llashning eng muhim sharti sifatida shaxsga nisbatan “jiddiy ayblov dalillari” mavjud bo‘lishi talab etiladi, ya‘ni oddiy gumon yetarli emas, balki yetarli darajada asoslangan dalillar bo‘lishi shart. Bundan tashqari, agar ishda oqlovchi holatlar, jazodan ozod qiluvchi sabablar yoki jinoyatning yoxud jazoning bekor bo‘lishiga olib keluvchi holatlar mavjud bo‘lsa, umuman ehtiyot chorasi qo‘llanilmaydi. Natijada, shaxs huquqlarini asossiz cheklashning oldini olishga xizmat qiladi. Italiya jinoyat-protsessual kodeksida ehtiyot choralari qo‘llash zaruratini ochib beriladi, bunga ko‘ra uchta asosiy holatni ko‘rsatadi: tergov jarayoniga xalaqit berilishi, dalillar yo‘q qilinishi yoki buzilishi xavfi bo‘lsa, (biroq shaxsning sukut saqlashi yoki aybni tan olmasligi bunday xavf sifatida baholanmaydi), shaxs qochib ketgan yoki qochish ehtimoli mavjud bo‘lsa va unga nisbatan jiddiy jazo tayinlanishi mumkin bo‘lsa (biroq bu xavfni faqat jinoyatning og‘irligiga qarab belgilash mumkin emas), shaxs yana jinoyat sodir etishi



mumkinligi (ayniqsa zo‘ravonlik, uyushgan jinoyatchilik yoki shu turdagi jinoyatni takrorlash xavfi mavjud bo‘lsa) ehtiyot chorasi qo‘llaniladi. Bu yerda ham xavf aniq va asoslangan bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko‘ra, qamoqqa olish ehtiyot chorasi eng og‘ir protsessual majburlov choralaridan biri bo‘lib, 242-moddaga muvofiq, ushbu chora odatda uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlar yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, besh yildan ortiq jazoga sabab bo‘ladigan jinoyatlar bo‘yicha qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ayrim alohida holatlarda, jinoyatning og‘irlik darajasidan qat’i nazar, shaxsning tergov va suddan yashiringanligi, shaxsini aniqlashning imkonsizligi, ehtiyot chorasi buzilganligi yoki doimiy yashash joyining yo‘qligi kabi vaziyatlarda ham qamoqqa olish qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan istisno hollari ham mavjud. Italiya jinoyat-protsessual tizimida esa qamoqqa olish faqat eng og‘ir jinoyatlar, jumladan terrorizm yoki uyushgan jinoyatchilik bilan bog‘liq holatlarda asosiy ehtiyot chorasi sifatida qo‘llanadi. Bunda sud har doim qamoqdan ko‘ra yengilroq choralar yetarli emasligini alohida asoslab berishi shart. Shuningdek, Italiya qonunchiligida insonparvarlik tamoyili kuchli ifodalangan bo‘lib, homilador ayollar, kichik yoshdagi bolasi bor onalar, keksalar yoki og‘ir kasalligi bor shaxslarga nisbatan qamoqqa olish odatda qo‘llanilmaydi. Bunday hollarda uy qamog‘i yoki tibbiy muassasada saqlash kabi muqobil choralar ustuvor hisoblanadi. Ikki davlat solishtirilsa, O‘zbekiston qonunchiligi qamoqqa olishni ko‘proq aniq jazolar chegarasi va protsessual holatlarga bog‘lab qo‘llasa, Italiya amaliyotida esa sudning individual yondashuvi va insonparvarlik prinsipi kuchliroq ekanligi ko‘rinadi va O‘zbekistonga o‘xshab alohida hollar bilan bog‘liq istisno vaziyatlar uchramaydi. Uy qamog‘i ehtiyot chorasiga to‘xtalsak, Italiyada bu tizimda uy qamog‘i ko‘pincha elektron nazorat vositalari, masalan, elektron bilaguzuklar orqali kuchaytirilgan shaklda qo‘llanadi. Sud shaxsning xavflilik darajasidan kelib chiqib, ushbu chorani tanlaydi va zarur hollarda elektron monitoringni majburiy belgilaydi. Shu jihati bilan O‘zbekiston qonunchilidan farq qiladi.



Italiya jinoyat-protsessual tizimida qo'llaniladigan ayrim ehtiyot choralari O'zbekiston amaliyotida mavjud bo'lmasa-da, ularning bir qismi milliy qonunchilikka joriy etilganda jinoyat protsessining samaradorligi va inson huquqlarini ta'minlash darajasini yanada oshirishi mumkin. Jumladan, Italiya kodeksining 282-moddasida belgilangan ayblanuvchiga jabrlanuvchi va uning oila a'zolari xavfsizligi uchun belgilangan joylarga borishini cheklab qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, sud jabrlanuvchi yoki uning oila a'zolarini moddiy ta'minlash uchun ayblanuvchiga alimentga o'xshash to'lovlar yuklashi ham mumkin. Ayrim og'ir jinoyatlar, ayniqsa oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarda, bu choralar yanada qat'iy shaklda qo'llaniladi, jumladan minimal masofa, masalan, 1000 metr etib belgilanishi mumkin. Shungdek, sud gumon qilinuvchiga ma'lum hududda yashamaslikni yoki aksincha, ma'lum hududni tark etmaslikni yuklashi mumkin. Bu shaxsni nazorat ostida ushlab turish va tergovga xalaqit berishining oldini olishga yordam beradi. Yana bir e'tiborga arzigulik ehtiyot chorasi 288-modda belgilangan ota-onalik huquqini vaqtincha to'xtatib turishdir. Buning ahamiyati bolalarga nisbatan jinoyat sodir etilgan hollarda muhim hisoblanib, sud bu orqali bolani himoya qilishni maqsad qiladi.

Aynan uy qamog'ida qo'llaniladigan zamonaviy elektron monitoring texnologiyalarining boshqa xorijiy davlatlar tajribasida ham keng qo'llanilib kelmoqda. Bu amaliyot shuni ko'rsatadiki, uy qamog'i ehtiyot chorasi nafaqat shaxs ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi, balki probatsiya xizmatlari faoliyatini ham sezilarli darajada yengillashtiradi. AQSh amaliyotida uy qamog'i ko'pincha pre-trial detention yoki house arrest probation shaklida qo'llanilib, shaxsning harakati GPS yoki radiochastotali anklet (elektron bilaguzuk) orqali kuzatib boriladi. Probation officers esa monitoring markazlari bilan hamkorlikda shartlar buzilishini real vaqt rejimida aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu tizim qayta jinoyat sodir etish (recidivism) darajasini sezilarli kamaytirib, shu bilan birga qamoqxona xarajatlarini ham qisqartiradi. Buyuk Britaniyada esa Home Detention Curfew (HDC) dasturi doirasida electronic tagging keng qo'llaniladi. Bu tizim komendantlik soati va muayyan hududiy cheklovlar



bilan birgalikda ishlaydi hamda probation service tomonidan avtomatik nazorat qilinadi³. Natijada shaxsning belgilangan tartibga rioya qilishi ustidan doimiy va samarali nazorat ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu yo'nalishda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yil 5-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 813-sonli qaroriga muvofiq elektron braslet (anklet) orqali masofaviy monitoring tizimi joriy etilgan bo'lib, u 2025-yil 1-yanvardan bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda⁴. Mazkur tizim shaxsni real vaqt rejimida kuzatish imkonini berib, uy qamog'i va boshqa ehtiyot choralarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu asosda O'zbekiston amaliyotini yanada takomillashtirish uchun elektron monitoring texnologiyalarini kengaytirish, profilaktika inspektorlarining malakasini oshirish hamda jinoyat-protsessual qonunchilikka EM bilan bog'liq aniq normalarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa bir tomondan jinoyatlarning oldini olishga, ikkinchi tomondan esa inson huquqlarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Italiya va O'zbekiston jinoyat-protsessual huquqi normalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki tizim ham shaxs erkinligi va jamiyat xavfsizligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ularning yondashuvlarida sezilarli farqlar mavjud. Xususan, Italiya Respublikasining "Misura cautelari" instituti ehtiyot choralarini qo'llashda yanada aniqroq, inson huquqlariga yo'naltirilgan va profilaktik xarakterga ega ekani bilan ajralib turadi. Eng muhim farqlardan biri qamoqqa olish ehtiyot chorasining qo'llanish mezonlarida namoyon bo'ladi. Italiya amaliyotida ozodlikdan mahrum qilish eng oxirgi chora sifatida qo'llanadi va qonunchilikda ayrim ijtimoiy toifalar, masalan, homilador ayollar yoki kichik yoshli farzandi bor ayollarga nisbatan muayyan himoya kafolatlari aniq belgilangan. O'zbekiston huquq tizimida esa bu holatlar

³ <https://zenodo.org/records/18091867> Profilaktika inspektorlarining uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llanilgan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatini takomillashtirishning milliy va xorijiy davlatlar tajribasi to'g'risidagi maqola

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-7249299> "Uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 813-sonli Qarori



ko‘proq sudning ichki baholashiga tayanadi, bu esa ayrim hollarda bir xillik va aniqlik yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Yana bir muhim jihat jabrlanuvchini himoya qilish mexanizmlaridir. Italiya tizimida ehtiyot choralarining muhim yo‘nalishi sifatida jabrlanuvchining xavfsizligini ta‘minlash alohida o‘rin tutadi. Masalan, gumon qilinuvchiga jabrlanuvchiga yaqinlashishni taqiqlash yoki uni yashash joyidan uzoqlashtirish kabi choralar keng qo‘llanadi. O‘zbekiston tizimida esa ehtiyot choralari asosan jinoyat ishining to‘g‘ri yuritilishiga qaratilgan bo‘lib, jabrlanuvchini himoya qilish masalasi ko‘proq boshqa huquqiy institutlar orqali tartibga solinadi. Shu sababli Italiya tajribasidagi ushbu yondashuvni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Italiya amaliyotida garov va tilxat kabi ayrim an‘anaviy ehtiyot choralarining kamroq qo‘llanishi ham diqqatga sazovordir, chunki bu tizimda asosiy e‘tibor shaxsning xavflilik darajasi va real xatti-harakatlariga qaratiladi, uning moddiy imkoniyatlariga emas. Bu esa qonun oldida tenglik prinsipini yanada kuchaytiradi. Mazkur tahlildan kelib chiqib, O‘zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha bir qator muhim yo‘nalishlarni ilgari surish mumkin. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun qamoq ehtiyot chorasini qo‘llashni yanada qat‘iy va aniq mezonlar bilan cheklash, jabrlanuvchini himoya qiluvchi choralarni ehtiyot choralari tizimiga bevosita integratsiya qilish hamda elektron nazorat vositalarini kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, protsessual qarorlar qabul qilishda inson huquqlari va shaxs erkinligini ustuvor tamoyil sifatida yanada mustahkamlash zarur. Italiya tajribasidagi “jabrlanuvchiga yaqinlashishni taqiqlash” chorasini O‘zbekiston sharoitida samarali joriy etish masalasiga kelganda, bunda mahalla institutining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Xususan, mazkur chora ijrosini ta‘minlashda mahalla fuqarolar yig‘ini, profilaktika inspektorlari va ichki ishlar organlarining hamkorlikdagi monitoring tizimi yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Shu bilan birga, elektron kuzatuv vositalari va tezkor xabar berish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilsa, jabrlanuvchining xavfsizligini ta‘minlash yanada samarali bo‘ladi. Mahalla darajasidagi ijtimoiy nazorat esa huquqiy chorani faqat majburiy emas, balki preventiv mexanizmga aylantirish imkonini beradi.



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 5, May, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Foydalanilgan manbalar:

- 1) <https://www.altalex.com/documents/codici-altalex/2014/10/30/codice-di-procedura-penale> “Codice di procedura penale” Italiya jinoyat-protsessual kodeksi
- 2) <https://lex.uz/uz/docs/-7249299> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi
- 3) <https://zenodo.org/records/18091867> Profilaktika inspektorlarining uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatini takomillashtirishning milliy va xorijiy davlatlar tajribasi to‘g‘risidagi maqola
- 4) <https://lex.uz/uz/docs/-7249299> “Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 813-sonli Qarori
- 5) <https://drive.google.com/file/d/149NLS1ldYKXZwqz1cm-TKodUcY0kPazT/view> Jinoyat-protsessual huquqi darslik. TDYU. Toshkent-2021.
- 6) <https://drive.google.com/file/d/1VNyUCy7jeSEmZWRvEiOLgQdUcrmfvJb5/view> Jinoyat-protsessual huquqi (umumiy qism) darslik. TDYU. Toshkent-2025.